



INGLIZ TILIDAGI FRAZEOLOGIZMLAR TADQIQI

Uraimova Mohigul
Qobuljon qizi

Farg'ona davlat universiteti, Tayanch doktorant
mohigulqobulovna@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola ingliz frazeologiyasi va frazeologizmlar tadqiqi masalasiga bag'ishlanib, unda bir qancha tilshunoslarning ushbu sohadagi ishlari o'rganib chiqiladi.

Kalit so'zlar: frazeologiya, frazeologizm, fraza, idioma, stilistika

Tilshunoslikda frazeologik birliklarni o'rganish tilshunos olimlarni qadimdan qiziqtirib kelgan. XIX asrgacha tilimizdagi iboralar lug'atshunoslik tarkibida o'rganilib, bunda faqat ularning ma'nolari va etimologiyasi yoritilgan. "Frazeologiya" atamasi yunoncha "faza" (phrasis- ifoda, nutq o'rami) deb talqin qilinsa-da, til ilmida frazeologizm, frazeologik birlik, frazeologik birikma, frazeologik chatishma frazema, ibora, idioma kabi terminlar ostida o'rganilib kelinadi. Fransuz tilshunosi Sharl Balli o'zining "Stilistika ocherki" va "Fransuz stilistikasi" nomli monografiyalarida frazeologizmlarni ilmiy o'rganishga bag'ishlangan maxsus boblar ajratdi. Sharl Balli so'z birlashmalarini frazeologizmlar deb atab, frazeologiya ilmi ularning semantik tabiatini, ichki belgilarini o'rganishi lozimligini ta'kidlagan edi[1:165]. Tilshunos-olimlarning turli tillar bo'yicha olib borgan tadqiqotlari va ilmiy izlanishlari frazeologiyaning alohida soha bo'lib shakllanishi va taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatdi. E'tirof etish lozimki, frazeologiya keyingi yillarda jadal taraqqiy etayotgan tilshunoslik sohalaridan biriga aylandi. Ta'kidlaganimizdek, frazeologiya o'tgan asrning 30-yillarida fan sohasida o'rganila boshlangan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida esa frazeologiya o'tgan asrning 50-yillardan boshlab ilmiy tadqiq etila boshlandi. Rus tilshunoslari frazeologik birliklarni klassifikatsiyalarga ajratish bo'yicha o'rganishgan bo'lsa, o'zbek tilshunoslari asosan frazeologizmlarni lug'atshunoslik tarkibida yoki ekspressiv-emotsionallik jihatdan o'rganishgan. Jumladan, rus olimi V.Vinogradov frazeologik birliklarni ma'nosiga asoslanib semantik jihatdan klassifikatsiya qiladi va ularni 3 turga bo'ladi [2:140-161]:

1. Phraseological fusions- bular frazeologik chatishmalar bo'lib, so'z tarkibining ma'nosidan umumiy ma'noni xulosa qilib bo'lmaydi. Frazeologik fusiylarning ma'nosi til rivojlanishining hozirgi bosqichida motivatsiyasiz hisoblanadi. Misol uchun, *once in a blue moon (ba'zan)*, *under the rose (yashirincha)*; *tit to tat (qasos olmoq)*.

2. Phrasological unities bular frazeologik birlashmalar bo'lib, so'zlar tarkibidan ma'noni xulosa qilish mumkin. Umumiy ma'no ko'chma ma'noga asoslangan bo'ladi. Ular motivatsiyali ifodalardir. Masalan, "to add oil to the fire" ya'ni olovga yog' sepmoq, vaziyatni yanada chigallashtirmoq; "a dark horse" – o'zini odamlardan olib

qochadigan, sirli odam; “to bend the knee” – taslim bo‘lish yoki o‘zidan kuchli shaxsni tan olish ma’nolarida ishlatiladi.

3. Phraseological collocations bular frazeologik qo‘shilmalar bo‘lib, nafaqat motivatsiyalangan balki so‘zlardan biri to‘g‘ri ma’noda qo‘llanilgani holda boshqasi ko‘chma ma’noda bo‘ladi. Misol uchun, *to come to power, to make it a rule* ya’ni *hokimiyatga kelmoq, qoida qilmoq kabilarni keltirib o‘tishimiz mumkin*.

Frazeologik birliklarning bu guruhida ba’zi qismlar ko‘chma ma’noni yo‘qotmasligi mumkin. Masalan: *to come to power, to make it a rule, to lose success*. Bu birikmalar sinonim emas va umumiy ma’no o‘zgaradi, lekin asosiy so‘z ma’nosi o‘zgarmaydi.

Professor A.I. Smirnitsky frazeologik birliklarni tuzilish jihatdan klassifikatsiya qiladi va ularni so‘z ekvivalenti sifatida vazifa bajaruvchi yuqori idiomatik so‘z tasvirlovchilar deb, ularning semantik va grammatik jihatdan xarakterlaydi. U mavjud frazalarni 3 turini taklif qiladi:

1. Traditional phrases-an’anaviy frazalar (*nice distinction, rough sketch*);
2. Phraseological combinations – frazeologik tuzilmalar (*to fall in love, to get up*);
3. Idioms – idiomalar (*to wash one’s dirty linen in public*).

Ikkinchi guruhni yana ikki kichik guruhga ajratadi:

1. One-top phraseological units, ya’ni bitta asosiy so‘zdan tashkil topadi hamda o‘zbek tilida predloglar yo‘q bo‘lgani uchun bizning tilga mos kelmaydi.

1. Fe’l- ravishli: *to give up, to bring up, to try out, to look up, to drop in, etc.*
2. To be ko‘makchili: *to be surprised, to be up to, etc.*
3. Predlogli birikmalar: *by heart*.

4. Two-top phraseological units, ya’ni qo‘shma so‘zlardan tashkil topgan (otga, fe’l yoki ravishga teng kelish mumkin): *brains trust, white elephant, blind alley, to know the ropes, to take place; ups and downs, rough and ready, flat as a pancake; every other day*.

Prof. Kunin esa frazeologik birliklar, frazeomatik birliklar va aralash holatlarni farqlab beradi. Frazeologik birliklar to‘liq yoki qisman ma’nosini o‘zgartiradi, frazeomatik birliklar esa uning adabiy ma’nosida qo‘llaniladi. Ular ikkalasi frazeologik turg‘unligiga qarab xarakterlanadi qaysiki, erkin frazalar va qo‘shma so‘zlardan farq qiladi[3].

Yuqoridagi klassifikatsiyalardan ko‘rinib turibdiki, barcha ko‘chma ma’noda ishlatilib, nutqqa tayyor holda kirgan gap va birikmalar frazeologik birliklar hisoblanadi va barcha turg‘un birliklar, maqol va hikmatli so‘zlar, frazalar va idiomalar barchasini o‘z ichiga oladi. Har bir tilning frazeologik qatlami o‘sha til millatining madaniyati, urf-odat va yashash tarzidan kelib chiqib shakllanadi va o‘z tilini boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Балли Ш. Французская стилистика / Пер. с фр. К.А. Долинина. - М.: 1961.-с. 165.
2. Виноградов В. В. Избранные труды. Лексикология и лексикография. - М.: 1977. - С. 140-161.
3. Кунин А.В. Большой англо-русский фразеологический словарь. – М.: Русский язык, 1998.